

“Soliqchi - ko'makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar



“Soliqchi - ko'makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar

Xabaringiz bor, joriy yil 16 mart kuni Prezidentimiz Davlat soliq qo'mitasiga tashrif buyurib, soliq sohasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida soliq organlari tadbirkorlar bilan uchrashib ularni muammolarini tinglashi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni tushuntirishi, ularga ko'makchi bo'lishlari yuzasidan qator topshiriqlar bergan edi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi, shuningdek, “Soliqchi-ko'makchi” tamoyili asosida soliq to'lovchilarga yanada sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida So'x tuman DSI xodimlari tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil aprel oyi davomida So'x tuman DSI tomonidan 112 ta tadbirkorlik sub'ektlarini qiynayotgan muammolari o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan 21 ta tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha tulovlarini bankdagi hisob raqamlariga kaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi. Tumanda O'RQ-714 sonli konuni bilan aprel oyida 81 ta korxonalariga 108 600.0 ming sum bankdagi xisob raqamiga qaytarib berildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

F.Turaboyev - So'x tuman Davlat soliq

inspeksiyasi boshlig'i